

**TA'LIM SOHASI BO'YICH A MA'LUMOT (Sillabus)**

<b>Oliy ta'lismuassasasi manzili</b>	Guliston davlat universiteti	4-mavze
<b>Kafedra</b>	“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrasи kab № 115 Qo'l. telefon: (99) 248-08-01	“San'atshunoslik” fakulteti
<b>Ta'lism yo'naliishi:</b>	5110800 – Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi	Bilim olish muddati - 4-yil bakalavr
<b>O'qitish joyi va vaqtisi:</b>	Jadval asosida	Guliston davlat universiteti
<b>O'qituvchi to'g'risida ma'lumot:</b>	GDU o'qituvchisi: Inoyatov Odiljon	E-mail: inoyatov61@mail.ru
<b>Kursning dolzarbligi:</b>	<p>«Chizma geometriya» fani – 5110800 – “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” bakalavriat ta'lism yo'naliishing asosiy vazifalardan biri O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»da belgilangan talablar asosida ishlab chiqilgan fan dasturlari bo'yicha zamonaviy mukammal chuqur nazariy bilimlar berib, ularni puxta amaliy malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar qilib tayyorlab etishtirishdir. Zamonaviy texnikaga doir bilimlarni mukammal egallashning shartlaridan biri grafik savodxonlikni oshirish, ya'ni chizmalarni o'qish va bajarishni bilishdir. Shu boisdan chizmalar chizishning asosi bo'lgan – chizma geometriya fanini mukammal o'rganishni talab etadi. Keyingi yillarda fundamental fanlarni, shu jumladan, «Chizma geometriya» fanini o'qitishda va uning asoslarini texnika va qurilishda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan. Inson faoliyatining turli sohalarida axborot va kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilayotganini hisobga olib, ba'zi chizmalar grafik usul bilan bir qatorda, analitik usulda ham berilgan. Bu kompyuterlar vositasida chizmalarni ba'zi elementlarini yoki butun bir chizmalarni bajarish imkoniyatini beradi. Chizma geometriya fani matematikaning bir tarmog'i hisoblanib, u uch o'lchamli fazodagi ob'ektlarning tekislikdagi grafik modelini qurish asoslarini o'rganadi. Shu tufayli, chizmani fazodagi geometrik shaklning tekislikdagi grafik modeli deb qarash mumkin. Bu esa chizma geometriyanı Oliy texnika ta'lismizidagi o'rnnini aniqlaydi.</p> <p>Metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lism to'g'risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tashkil etadi. Shuningdek, injinerlik grafikasiga oid adabiyotlar ma'ruza uslubi ham muhim</p>	

	<p>o'rinni egallaydi. Ma'ruzalar rangli va rangsiz reproduktsiyalar, plakatlar, proektor orqali ko'rsatib olib boriladi.</p>
<b>Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar</b>	<p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- proektsiyalash usullarining qonuniyatları, fazoviy geometrik va tabiiy jismlarni tekislik yoki sirt yuzasida tasvirlashning nazariy asoslari, markaziy va parallel proyektsiyalash usullarida pozitsion va metrik masalalarni echishning nazariy asoslari, perspektiv tasvir qurish usullari to'g'risidagi <i>bilimga</i>;</li> <li>-uch o'lchamli fazoda joylashgan buyumlaming ikki o'lchamli tekislik yoki sirt ustida tasvirini yasashni, proektsiyalash usullarida geometrik shakllar orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni tekshirishni, obektlarning perspektiv tasvirlarini qurish <i>ko'nikmalariga</i>;</li> <li><i>-chizma geometriya nazariyasi va metodlaridan turli geometrik, texnikaviy masalalami echishda unumli usullarni tanlay olish va uni amalda qo'llash, avvaldan berilgan shartlarga asosan sodda egri chiziq va sirtlarni loyihalash, perspektiv tasvirlarni tahlil qilish malakasiga ega bo'lishligi lozim.</i></li> </ul>
<b>Fanning ta'limdagi o'rni</b>	<p>"Chizma geometriya" fani fazoviy jismlaming geometrik tasavvuridan uning planirnetrik tasviri (tekis chizmasi)ga o'tish va fazoviy jism elementlarining o'zaro munosabatlarini uning planirnetrik tasviridan qayta fazoviy holatiga ko'chirib o'tish qonuniyailarini tadqiq qilish jarayonlariga uslubiy yondashuvi hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi, konstruktsiyalash, loyihalash ishlarida inson miyasidagi g'oyalari hamma tushuna oladigan chizma tilida oq qog'ozga tushira olish imkoniyatlari mayjudligi bilan dolzarb hisoblanadi.</p>
<b>Mashg'ulot turlari:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzular bo'yicha nazariy bilimlarini so'rash;</li> <li>- bakalavrlarning mustaqil ishi;</li> <li>- konspektlar yozish;</li> <li>- testlar echish;</li> <li>- individual va guruhli prezentatsiyalar;</li> <li>- uy vazifalarini bajarish;</li> <li>- grafik ishlar bajarish;</li> <li>- modellar bajarish;</li> </ul>

<b>“Chizma geometriya” fani bo'yicha tabalarning o'zlashtirish va bilim darajasini baholash tizimi</b>	
<b>1.Oraliq nazorat (ON)</b>	<p>ON fan bo'yicha o'tkazilgan har bir mavzudan o'zlashtirilgan bilimlarini baholash nazarda tutiladi. Odatda bunday baholanishlar amaliy mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda oraliq nazorat auditoriyadagi o'zlashtirish darajasini o'z ichiga oladi.</p> <p>“Tekislik va uning ortogonal proektsiyalari” modulini o'qitish metodikasi bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarish.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha nazariy bilimlarini so'rash;</li> <li>- konspektlarini tekshirish;</li> <li>- bakalavr faolligini baholash;</li> <li>- testlar o'tkazish;</li> <li>-uy vazifasini bajarilishini tekshirish;</li> <li>-topshiriqlar bajarish va boshq.</li> </ul>
<b>2. Yakuniy nazorat (YaN)</b>	<p>YaN odatda o'quv semestrining yakunida talabalarning o'zlashtirishgan bilimlarini baholash maqsadida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma yoki og'zaki shaklida o'tkaziladi. Talabalarning bilimi, o'zlashtirishi nazorati 5 ballik tizimi asosida aniqlanadi.</p>